

ADABIYOTLAR:

1. A.Ivanova “Giyohvandlik yo‘lidagi mustahkam g‘ov” \ Xalq so‘zi, 27 iyun, 2008 yil. 3 b
2. F.Toxirov “Giyohvandlik –xavfli illat” // Inson va qonun 5-fevral, 2002 yil №5 1-b
3. H.Ibrohimov “Giyohvandlikka qarshi kurash: hamkorlik–harakat mezonlari” // Inson va qonun 19 fevral, 2002 yil №5 3-b
4. H.Yuldoshov “O‘zbekistonda 1,6 tonnadan ortiq giyohvandlik vositalari yoqib yuborildi”// Xalq so‘zi, 26 iyun, 2018 yil
5. Sh.Anvarov “Og‘uli hayot azob” // Toshkent haqiqati. 20 fevral, 2008 yil, 4 b
6. “O‘zbekistonning giyohvandlikka qarshi siyosati natijalari ma‘lum qilindi”// Xalq so‘zi, 29.08.2017
7. Toshkent haqiqati 2001 yil 15 sentabr’ №73 3 b
8. Xolmatova M., Muravyeva N. Yoshlar oilaviy hayot bo‘lag‘asida.-T.: O‘zbekiston, 2000
9. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/26/narcotic/>
10. <https://www.lex.uz/acts/86044>

**ROSSIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA TURKISTONDA BOSHQARUVNI
TASHKIL ETISH TARIXIDAN**

Qodirova Lutfiya Batirovna

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti

lutfiyaqodirova@rambler.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistonda mahalliy davlatchilik an‘analarida, jumladan o‘zini – o‘zi boshqarish tizimida sodir bo‘lgan murakkab va ziddiyatli o‘zgarishlar tahlil qilingan. Ushbu davrda ma‘muriy boshqaruvda alohida mahalliy davlatchilik tarkibiy qismlarining saqlanib qolinishiga sabab bo‘lgan omillar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mustamlakachilik, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish, “harbiy-xalq” boshqaruvi, general-gubernatorlik, oqsoqollik, volost, mingboshi, volost qurultoyi

Аннотация. в данной статье анализируются сложные и противоречивые изменения, произошедшие в Туркестане в традициях местной государственности, в том числе в системе самоуправления, в колониальный период Российской империи. Выявлены факторы, которые привели к сохранению отдельных компонентов местной государственности в административном управлении.

Ключевые слова: колониализм, местное самоуправление, “военно-народное” управление, генерал-губернаторство, аксакальство, волость, тысячник, волостной съезд

Abstract. This article analyzes the complex and contradictory changes that took place in Turkestan in the traditions of local statehood, including in the system of self-government, during the colonial period of the Russian Empire. The factors that led to the preservation of certain components of local statehood in administrative management are identified.

Keywords: colonialism, local government, "military-people's" government, general governorship, eldership, volost, thousander, volost congress.

1. Kirish

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davri O‘rta Osiyo jamiyati hayotining barcha sohalarida, shu jumladan mahalliy davlatchilik an‘analarida sodir bo‘lgan murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan ajralib turadi. Ushbu davrda boshqaruv sohasida sodir bo‘lgan jiddiy o‘zgarishlar

bilan bir qatorda, ma'muriy boshqaruvda, ma'lum darajada, mahalliy davlatchilik tarkibiy qismlarining saqlanib qolganligi kuzatish mumkin. Ma'muriy-hududiy boshqaruvning boshlang'ich bo'g'inlarida mahalliy aholining ishtiroki nafaqat davlat boshqaruvining mahalliy an'alarini saqlab qolish, balki ma'lum darajada ularni yangicha sharoitda rivojlantirish imkonini berdi. Shu nuqtai nazardan Rossiya imperiyasining Turkistonda boshqaruvni tashkil etish va unda mahalliy an'analarni saqlab qolish borasidagi siyosatini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Keng istilochilik harakatlarini boshlar ekan, Rossiya imperiyasi hududiy egalik ko'lamiga doir puxta rejaga ega bo'lmagani holda, bosib olingan yerlarda boshqaruvni tashkil etish bilan bog'liq tayyor loyihaga ham ega emas edi. Shu sababdan imperiya hukumati bosib olingan Turkiston yerlarida boshqaruvni tashkil etish ishiga dastlabki davrlarda yetarli darajada ahamiyat qaratmagan.

Rossiya imperiyasining Turkistonning egallangan hududlarini boshqaruvi xususida 1858 yilda Harbiy vazirlik boshqaruvchisi V.I. Vasilchikov Orenburg korpusi komandiriga yozgan maktubida shunday baho bergan edi: "... bu o'lkadagi barcha ishlar shu vaqtgacha mutlaqo tizimsiz va hukumat hamda hukmdorlar intilishi lozim bo'lgan maqsadlar aniqlanmasdan olib borilgan. Buning natijasida ko'rib turganimizdek, kim ularni bajarilishi lozimligiga qarab, bir buyruqlar o'rniga to'satdan boshqasi beriladi" [12].

Rossiya oliy harbiy-siyosiy doiralari O'rta Osiyo yerlarida boshqaruvni tashkil etish ishiga faol harbiy harakatlar boshlagan davrdan boshlabgina jiddiy kirishdi. Turkistonda boshqaruvning arzon va samarali usullarini topish masalasi, o'zini – o'zi boshqarish muammosi hukumat doirasidagi ko'pchilikni e'tiborini tortadi.

2. Metodlar

Tadqiqotda o'rganilayotgan mavzu tarixiylik, xolislik va xronologik tamoyillar, qiyosiy va mantiqiy tahlil kabi umumqabul qilingan usullarga tayanilgan holda yoritildi. Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistonda mahalliy davlatchilik an'alarida, jumladan o'zini – o'zi boshqarish tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilishda asosan manbalarga tayanildi.

3. Natijalar

Rossiya hukumat doiralarda mustamlaka boshqaruvini tashkil etish, bunda mahalliy ijtimoiy va madaniy an'analarni hisobga olish masalasiga nisbatan ikki xil yondashuv shakllangan bo'lib, ularni shartli ravishda "qat'iy" va "yumshoq" deb atash mumkin. Birinchi yondashuv o'lkada ma'muriyatning yuqori vakillariga cheksiz huquqlar berilgan "harbiy-xalq" boshqaruvini joriy etilishida namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi yondashuvda mustamlakachi hokimiyatga tub aholining ichki turmushiga mutlaqo aralashmagan holda, uning ustidan faqat siyosiy nazoratni amalga oshirish funksiyasini qoldirish mo'ljallangan edi. Ushbu yondashuv tarafdorlari yerli xususiyatlarni ham hisobga olish, mahalliy ijtimoiy-huquqiy meyorlarga birmuncha ehtiyotkorlik bilan yaqinlashish zarurligi haqida fikr bildirar edilar.

Birinchi yondashuvni Orenburg general-gubernatori N.A. Krijanovskiyning 1865 yilda Tashqi ishlar vazirligi Osiyo departamenti direktoriga yozgan maktubidagi fikrlar yaqqol ifodalaydi: "Mening fikrimcha, kuchsiz qo'shnilarimizning huquqlari, tili va odatlariga erk berishga chek qo'yish vaqti keldi... Bizning qo'llarimiz orqali bu yerga sivilizatsiya va insoniyatning baxtsiz pariylari(hayotiga yaxshilik kirib kelishi uchun O'rta Osiyoda faqat biz xo'jayin bo'lishimiz lozim".

Harbiy – dengiz arbobi A.I. Butakovning "Bizning O'rta Osiyodagi holatimiz" deb nomlangan 1867 yilgi ma'lumotida keltirilgan fikrlar ikkinchi yondashuv tarafdorlarining qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi: "Turkistonning ichki osoyishtaligi afsuski, hali

ta'minlanmagan; tezlikda birin-ketin sodir bo'lgan istilolar o'lka rahbarlariga uning tuzilmasi bilan shug'ullanishga vaqt bermadi; tezkor va go'yoki ish orasida o'ylab topilgan choralar, ko'p hollarda, ushbu mamlakatlarning asrlar davomida shakllangan sivilizatsiyasiga zid kelib, chuqur ildiz otgan tartiblarni buzdi va Turkiston viloyatining aholisining kelajagi uchun imkon bermadi. Agar bunga imperiya hukumati ikkinchi darajali vakillarining nazoratsiz o'zboshimchaligi bilan birga yangi soliqlar va turli og'irliklarni qo'shsak, mahalliy aholining noroziligi va umidsizligini tushunish mumkin, buning ustiga ularning g'oliblari g'ayriddin kofirlar, har qanday musulmon esa kofirdan ko'ra o'z dindoshidan kelgani o'n baravar ko'p bo'lsa ham chidaydi" [13].

Ushbu davrga oid arxiv hujjatlarining tahlili Turkistonda boshqaruvni tashkil etish masalada imperiya ma'muriyati vakillarining qarashlari ziddiyatli ravishda o'zgarib borganligini ko'rsatadi. Rossiya imperiyasi hukumati vakillari bosib olingan o'lkada boshqaruvning umumiy asoslarini belgilash masalasida imperiya qonunchiligi va mahalliy sharoitni moslashtirish kabi juda murakkab muammoga duch kelganlar. Bu masalani hal etishning murakkab jihatlaridan biri shundan iborat ediki, joylardagi hukumat vakillari har doim ham o'z qarorlarini yuqori doiradagi rahbarlar bilan kelishib qabul qilish imkoniyatiga ega emas edilar. Shu sababdan boshqaruvga oid, zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan qarorlar ayrim holatlarda shaxsiy tashabbuslar asosida, mustaqil ravishda qabul qilingan.

Mana shunday sharoitda bosib olingan yerlarda boshqaruvni tashkil etishga qaratilgan takliflar berish va meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish tashabbusi joylardagi vaziyatdan yaxshiroq boxabar bo'lgan Rossiya harbiy qo'mondonligi qo'liga o'tganligini ko'rish mumkin.

4. Muhokama

Rossiya tasarrufiga o'tgan "chekka o'lka"da boshqaruvni tashkil etishga oid birinchi hujjat 1865 yilda yangi Qo'qon chizig'i qo'mondoni M.G. Chernyayev rahbarligida N.A. Seversev tomonidan ishlab chiqilgan [9, 89] va "O'rta Osiyo chegara viloyati haqidagi Nizom loyihasi" ko'rinishida Peterburgga taqdim etilgan [2,31]. Rossiyaning Osiyo qismi va Orenburg o'lkasini ajratish va uning tuzilishi haqidagi masala 1865 yilning 25 yanvarida alohida qo'mita yig'ilishida ko'rib chiqilgan va unda alohida Turkiston viloyatini tuzish haqidagi qaror qabul qilingan [2, 37-40]. M.G. Chernyayev tomonidan taklif etilgan loyiha Harbiy vazirlikda qayta ishlanib, 1865 yilning 6 avgustida Aleksandr II ushbu loyiha asosida tayyorlangan "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom" [4] ga imzo chekadi.

Dastlabki davrlarda imperiya hukumati vakillari boshqaruvni tashkil etishda mahalliy aholi urf-odatlariga tayanishni ma'qul ko'rgan. Bu xususiyat ayniqsa, M.G. Chernyayev faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan [3]. U o'lkaning bosib olingan hududlarida ma'muriy boshqaruvni shariat ko'rsatmalari asosida tashkil etishga uringan va bu boradagi birinchi tajribani Avliyootada o'rttirgan. Bu yerda o'zini-o'zi boshqarish va diniy ishlarga aralashmaslik yo'lini tanlagan edi. O'zini-o'zi boshqarish shaharning obro'li yettita oqsoqolidan iborat Kengash yordamida amalga oshirilgan bo'lib, oqsoqollar shahar aholisi saylaydigan bek tomonidan tayinlangan. Kengash sud ishlarini ham amalga oshirgan. M.G. Chernyayev dastlab bu yerda qadimdan joriy etilgan jazo shakllarini (o'g'irlik uchun qo'lni chopish, og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazosi berish) o'zgartirishni istamagan [8, 141]. Keyinchalik u polkovnik Bogatsevichni Avliyoota komendanti etib tayinlagan va Rossiya qo'shiniga mahalliy aholiga zulm o'tkazish, ularning poliz, bog'lariga kirishini ta'qiqlagan, chorva o'g'irlarini haydab yuborish, mahalliy yigitlar bilan shahar va uning atrofini qo'riqlashni buyurgan. Shaharliklar va Rossiya qo'shinlari o'rtasidagi majburiyatlar qog'ozda qayd etilgan va vaqtinchalik kuchga kirgan [8, 145-147]. Aynan shu kabi choralar Chimkentda ham amalga oshirilgan.

Toshkent harbiy ma'muriyatining boshqaruv dasturi bir tomondan M.G. Chernyayev va ikkinchi tomondan shahar oqsoqollari tomonidan imzolangan va taxmin qilish mumkinki, ularning ko'rsatmalari va maslahati bilan tuzilgan o'ziga xos "shartnoma"dan iborat edi. Bu shartlar

M.G. Chernyayevning Toshkent aholisiga e'lonida o'z aksini topgan [10, 91-92].

1865 yil 1 iyuldan boshlab kuchga kirgan mazkur "shartnoma" shartlarida birinchi navbatda, islom dinini qattiq ushlashga, shariat qoidalariga so'zsiz rioya qilinishiga, qullikni bekor qilishga, musulmonchilik qoidalariga rioya qilgan holda may, bo'zani ichishni va oshiq o'ynashni ta'qiqlashga, maktablar faoliyatini susaytirmaslikka, shahar ko'chalarining tozaligini saqlash kabilarga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, unda xalqning mol-mulki va dini daxlsizligini saqlash ham muhim o'rin egallagan. Umuman aytganda, "shartnoma"da milliy an'analar va urf-odatlar himoya etilib, mahalliy turmush tarzining sofliqi muhofaza qilinganligi diqqatga sazovordir.

Dastlab mustaqil Toshkent xonligini tuzish taklifi bilan chiqqan M.G. Chernyayev vaziyatni va toshkentliklar fe'l - atvorini yaqindan o'rgangach, shahar aholisiga o'zini-o'zi boshqarish huquqini berish va ruslarning bu masalaga aralashuvi faqatgina amaldorlarni kuzatish va vazifasiga noliyqlarini almashtirishdan iborat bo'lishi kerak [8,5], degan xulosaga kelgan. Zabt etilgan shaharda bir hafta o'tmasdan deyarli Rossiyaning aralashuviziz tinchlik va tartib o'rnatilganligi, aholisining hukumatga itoatkorligini ko'rgan M.G. Chernyayev Toshkentni boshqarish uchun shahar boshqaruvchisi va uning yordamchisi, ikkita tarjimon va ikkita kotib, soliq va boj yig'implarining to'g'ri yig'ilishini nazorat qilish uchun ikkita amaldorning o'zi yetarli bo'ladi, deb hisoblagan.

Orenburg general-gubernatori N.A. Krijanovskiy esa o'zining harbiy vazir bilan yozishmalarida saylash tizimining joriy etilishiga qarshi chiqqan, chunki bu tizim mahalliy partiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi, bosib olingan hududlarda ular ko'nikkan yakkahokimlik boshqaruvini joriy etish eng maqbul usul [8, 151], deb hisoblagan. Harbiy vazirning Toshkentda azaldan munitsipalitet boshqaruv tizimi borligi haqidagi mulohazasiga javoban, "Orenburg general – gubernatori Toshkent ma'muriyati tashqi ko'rinishdan munitsipalitetga o'xshasa-da, bu mohiyatan munitsipal boshqaruvga parodiyadir, oqsoqollar aslida hukumat amaldoridan boshqasi emas" [8, 247-248], deb xulosa bildirgan.

M.G. Chernyayev o'zining bevosita rahbaridan farqli o'laroq, boshqacha nuqtai nazarga ega bo'lgan: "O'z-o'zini boshqarishga kelsak, u bosib olingan davrdayoq de facto mavjud edi"[8, 234]. Uning fikriga ko'ra, o'zini-o'zi boshqarish bo'lmasa, 200 ming kishilik aholiga ega shaharda tartibni saqlash qiyin bo'lgan bo'lar edi. Turkiston viloyati harbiy gubernatorining mahalliy aholiga oqsoqol saylash huquqini berish haqidagi ko'rsatmasini N.A. Krijanovskiy qo'l ostidagi xodimning o'zboshimchaligi sifatida baholagan.

Aholini tinchlantirish uchun mahalliy an'analarni ko'proq hisobga olgan holda amalga oshirilgan boshqaruv tajribasi uzoqqa cho'zilmadi. Ko'p o'tmay, Turkistonda imperiya manfaatlariga javob beradigan o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. O'lkani boshqarish imperiyaga xos ma'muriy an'analar ruhida, mutlaq harbiy qo'mondonlik va Rossiya imperiyasi g'aznasi manfaatlaridan kelib chiqib tashkillashtirildi.

M.G. Chernyayevning o'rniga tayinlangan harbiy gubernator D.I. Romanovskiy Turkistonga mustamlaka sifatida qaramaslik, o'lkani imperiyaning tarkibiy qismiga aylantirish va Rossiyaning o'zida burjua islohotlari jarayonida yuzaga kelayotgan davlat muassasalari tizimini bu yerda asta-sekin yaratib borishni taklif qildi [7, 66].

Harbiy vazir D.A. Milyutin Rossiya imperiyasining Toshkent va O'rta Osiyodagi keyingi siyosati xususidagi 1866 yil 14 yanvardagi o'ta maxfiy axborotnomasida o'lkada boshqaruvni joriy etishga oid turli fikrlar tahlil qilgan. Unda Toshkent boshqaruv tuzilmasiga muvofiq har qanday mulohaza hukumatning bu shaharni imperiyaga qo'shib olmaslik xususidagi bayonoti asosida bo'lishi lozimligi uqtirilgan. Biroq, Toshkent ishlariga aralashmaslik ham u yerda ichki nizolar yoki Rossiyaga qarshi partiyalar hamda ruhoniylar ta'sirining kuchayishiga olib kelishidan xavotiri bayon etilgan [11, 16-17].

Ushbu ma'lumotnomada aytilishicha, dastlab Toshkentda yakkahokimlik (xon) joriy etishni

taklif etgan N.A. Krijanovski o'zining bu g'oyasidan voz kechib, u yerdagi boshqaruv tartibini o'lka va uning xususiyatlari bilan tanishish uchun kerak bo'lgan ma'lum muddatdan so'ng o'zgartirish fikriga kelgan. U soliq va yig'imlarning hajmini aniqlash, ularni undirish tartibini, davlat harajatlari, amaldorlarga xizmat haqqini belgilash kabi masalalarni o'z zimmasiga olishni mo'ljallagan. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Turkiston harbiy gubernatori qoshida vaqtinchalik qonunchilik komissiyasini tashkil etishni taklif etgan [11, 17].

Ammo, ko'pchilik hukumat vakillari tartibli va farovon, ko'p sonli shaharning an'anaviy boshqaruvi o'ziga xos ijobiy xususiyatlarga ega ekanligini yaxshi tushunganlar va yangi tartiblarni joriy etish ko'p asrlik an'analarning buzilishi o'lkadagi vaziyatning keskinlashishiga olib keladi, deb hisoblagan. Shu sababdan D.A. Milyutin ham o'zining yuqorida tilga olingan axborotnomasida M.G. Chernyayevning tajribasidan kelib chiqib, saylash asosidagi mahalliy boshqaruvni tashkil etishni yoqlagan.

1865 yilda harbiy vazir D.A. Milyutinning tashabbusi bilan joylardagi ahvol bilan tanishish va bosib olingan hududlarni boshqarish prinsiplarini ishlab chiqish uchun "dasht komissiyasi" deb nom olgan maxsus komissiya tashkil etilgan edi. Uning a'zolari vaziyatni o'rganib chiqib, Turkiston viloyatni Orenburg general-gubernatorligidan ajratish va mustaqil boshqaruvni tashkil etishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqaradi. "Harbiy – xalq boshqaruvi" deb nom olgan bu boshqaruv tizimi yuqori ma'muriy darajani harbiy vazirlikka bo'ysunuvchi rus amaldorlariga, quyi bosqichni esa saylov tizimi asosida tayinlanadigan mahalliy vakillarga topshirishni nazarda tutardi. Dasht komissiyasining muhim xulosalaridan biri sifatida "siyosiy xarakterga ega bo'lmagan barcha ishlarni saylov asosida mahalliy aholining ichki boshqaruviga topshirish" ko'zda tutilgan edi. Dasht komissiyasining "Tushuntirish xati"da ta'kidlanishicha, saylovlar O'rta Osiyo jamiyatining ajralmas qismi bo'lib, o'tmishda o'z-o'zini boshqarish vakillari xalq tomonidan saylangan va mahalliy hukmdor tomonidan tasdiqlangan [1].

1867 yida Turkiston sheneral-gubernatorligi tashkil etilgach, Dasht komissiyasining loyihasi vaqtinchalik asosda amalga kiritilib, general-gubernatorga vaziyatga muvofiq o'zgarishlar kiritish huquqi berildi.

XIX asrning 70 yillari boshlariga kelib, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ustidan rus ma'murlari nazoratini kuchaytirish tarafdori bo'lgan Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman tomonidan Dasht komissiyasi takliflaridan farq qiluvchi boshqaruv loyihalari ishlab chiqilgan. 1871 yilning martida mahalliy xalqning turmushi va mamlakatning boshqa sharoitlarga moslashtirilgan holda Turkiston general-gubernatorligini boshqarish to'g'risidagi yangi nizom loyihasi ishlab chiqilib, imperatorga taqdim etilgan [14]. Rossiya imperiyasi ma'murlarining fikriga ko'ra, mahalliy jamoatchilik boshqaruvi hamda soliq ishidagi noqulayliklar 1873 yilda o'lkani boshqarish to'g'risida yangi nizom loyihasining ishlab chiqilishiga turtki bo'lgan [15]. Ushbu loyihalar tasdiqlanmagan, biroq amalda boshqaruv tizimi general-gubernator ko'rsatmasiga ko'ra tashkil etilgan.

Turkiston general-gubernatorligida 1867 yilgi "Vaqtli Nizom loyihasi" asosida joriy qilingan boshqaruv usuli mahalliy aholi ustidan to'la nazorat qilish imkonini berardi. Bu idora usuli mahalliy halqlar boshqaruv siyosatiga zid bo'lib, Rossiya imperiyasining ichki qismida joriy etilgan idora usuli namunasida tashkil etilgan edi.

Ushbu nizomga ko'ra, o'troq aholiga bir bosqichli (oqsoqollar), ko'chmanchi aholiga esa ikki bosqichli (ovul va volost (bo'lis)) boshqaruv tizimi joriy etilgan. Qishloq va ovul jamoalarini yuzdan ikki yuzgacha bo'lgan hovli yoki o'tovlar, volost asosini mingdan ikki minggacha xonadon tashkil etgan.

Qishloq oqsoqollari, nomzodlari va oqsoqol yordamchilari qishloq jamoasi tomonidan bevosita saylovga aralashishga haqqi bo'lmagan volost boshqaruvchisi ishtirokida saylangan. Qishloq yig'inining qarori haqiqiy hisoblanishi uchun xonadon egalarining yarmidan ko'pi bo'lishi

yoki oddiygina ko‘pchilik ovoz kifoya qilardi. Oqsoqol nomzodi uyezd boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan va u qishloq yig‘ini qarorini bekor qilish huquqiga bo‘lgan.

Mustamlakachi hukumat saylangan mahalliy vakillar masalasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Volost boshqaruvchisi yoki oqsoqollikka saylangan shaxs biror bir sababga ko‘ra, rus ma‘muriyatini qanoatlantirmasa, viloyat harbiy gubernatori yangi saylov tayinlashi yoki boshqaruvni o‘z ixtiyoriga asosan boshqa odam bilan almashtirishi mumkin bo‘lgan. Bu esa saylovlar vaqtida turli guruhlar o‘rtasidagi kurash, shikoyat, chaquv va korrupsiyaning keng tus olishiga olib kelgan va bu jihat 1882-83 yillarda Turkiston general-gubernatorligida taftish o‘tkazgan F.Girs tomonidan ham qayd etilgan edi [5,25].

Qishloq yig‘inida har 50 ta xonadon nomidan bittadan vakil (ellikboshi) saylanib, saylangan vakillar rus ma‘murlari ishtirokida o‘tuvchi volost qurultoyiga to‘planardi. Volost qurultoyiga volost boshqaruvchisi, xalq sudyalari va ularga nomzodlarni saylash; quyi ma‘muriyatlarning mansabdor shaxslariga maosh belgilash; ko‘priklar, yo‘llar, xo‘jalik qurilmalarining holatini nazorat qilish; suvdan foydalanish va suv ta‘minoti ishlarini boshqarish huquqi berilgan edi.

Volost boshqaruvchisi - mingboshi qishloq, ovul oqsoqollari tomonidan, 25 yoshdan yuqori bo‘lgan shaxslar orasidan uch yil muddatga saylangan. Bunda ikki nomzod ko‘rsatilib, ikkinchisi uning muovini bo‘lgan. U o‘z faoliyatini rus mustamlakachi ma‘muriyati tasdig‘idan o‘tgandan so‘nggina boshlagan, agar nomzodlar harbiy gubernator tomonidan tasdiqlanmasa, bekor qilingan va boshqasi tayinlangan.

Saylangan ma‘muriyatning asosiy vazifasi soliq va yig‘imlarning muvaffaqiyatli va o‘z vaqtida to‘planishini ta‘minlashdan iborat edi. K.P. Kaufmanning o‘z hisobotida bu organlarning mustamlakachi hukumat oldidagi muhim roli quyidagi qayd etiladi: “mahalliy-xalq boshqaruvisiz, na yig‘imlarning kelib tushishiga, na yangi ochilgan muassasalarning to‘g‘ri faoliyat yuritishiga umid qilib bo‘lardi” [2,62].

1886 yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish tizimini uzil-kesil shakllantirdi [6]. Unga ko‘ra o‘troq aholining bir bosqichli boshqaruv tizimi bekor qilindi va ikki bosqichga aylantirilib, oqsoqolliklar volostlarga birlashtirildi. Ovul jamoalari va oqsoqollar vakillari yig‘ini barcha saylovchilar yig‘ilishi bilan almashtirildi.

5. Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, rus ma‘muriyatining aholiga “o‘zini-o‘zi boshqarish” va “saylov huquqini berish” haqidagi fikrlari siyosiy niqob bo‘lib, haqiqatda barcha ishlar imperiya ma‘murlarining kuchli nazorati ostida bo‘lgan. Biroq, mustamlakachilar mahalliy an‘analalar bilan hisoblashishga, bu yerda shakllangan qadriyatlarni hisobga olishga majbur bo‘lishgan. Qadimdan mavjud bo‘lib kelgan mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish an‘anasi demokratik elementlar: ko‘pchilik va yashirin ovoz berish, oqsoqollarni belgilangan qisqa muddatga saylash kabilar bilan to‘ldirildi.

Cheklangan xususiyatiga qaramasdan, Turkistonda Rossiya mustamlakachiligi davrida shakllangan mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish tizimi qadimdan mavjud bo‘lgan mahalliy an‘analarning ma‘lum darajada saqlanib qolinishiga va XX asrning boshlariga kelib mahallaning jamiyat tuzilmasi sifatida an‘anaviy shaklda qaror topishiga imkon yaratdi.

ADABIYOTLAR:

1. Абашин С. Империя и местное самоуправление: идеология реформ в русском Туркестане в конце XIX-начале XX вв. // Пространство власти: исторический опыт России и вызовы современности. – М.: Московский общественный научный фонд, 2001. – С.391-413.
2. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.
3. Бабаджанов Б. М. Туркестанский конквистадор: Взлеты и падения генерала Черняева.
4. 2 // Восток свыше. 2012. № 27,- С. 63-72; №28.- С. 45-60

4. Временное Положение об управлении Туркестанской областью // Полное собрание законов Российской империей. Собрание второе (ПСЗРИ-II). – Т. XL. 1865. Отд. 1. – СПб.: Тип. II Отд-ния собств. Е. И. В. Канцелярии, 1867. – С. 876–881.
5. Отчёт ревизующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса. – СПб., 1883. – 465 с.
6. Положение об управлении Туркестанским краем. – СПб.: Государственная типография, 1886 – 53 с.
7. Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. – СПб.: Издание редакции журнала “Всемирный путешественник”, 1868. – 582 с.
8. Туркестанский край. Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края. Собрал полк. А.Г. Серебренников. Т.17: 1864 год. Ч 1. – Ташкент: тип. Шт. Туркест. воен. окр., 1914. – 226 с.
9. Туркестанский край. Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края. Собрал полк. А.Г. Серебренников. Т.19: 1865 год. Ч 1. – Ташкент: тип. Шт. Туркест. воен. окр., 1914. – 297 с.
10. Туркестанский край. Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края. Собрал полк. А.Г. Серебренников. Т.20: 1865 год. Ч 2. – Ташкент: тип. Шт. Туркест. воен. окр., 1914. – 268 с.
11. Туркестанский край. Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края. Собрал полк. А.Г. Серебренников. Т.21: 1866 год. – Ч 1. – Ташкент: тип. Шт. Туркест. воен. окр., 1915. – 319 с.
12. O‘z MA, I.715-fond, 1-ro‘yxat, 20-yig‘majild, 359-varaq.
13. O‘z MA, I.715-fond, 1-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 126-127-varaqlar.
14. O‘z MA, I.715-fond, 1-ro‘yxat, 45-yig‘majild, 322-varaq.
15. O‘z MA, I.715-fond, 1-ro‘yxat, 68-yig‘majild, 25-varaq.

XORIJIY MANBALARDA MARKAZIY OSIYO MINTAQASI TAVSIFI

Rasulova Durdona Baxronovna

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mitaqasining xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi masalalari ochib berilgan. Xususan, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida mintaqaga tashrif buyurgan fransuz tadqiqotchisi Genri Mozerning hayoti va faoliyati keng yoritilib, tadqiqot natijalari asosida yaratilgan asarlar tavsifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, fransuz sharqshunosligi, manbashunoslik, sharqshunoslik maktablari, orografiya, gidrografiya, irrigatsiya, mineralogiya, geologiya, tipografiya, toponimika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются исследования Центральноазиатского региона зарубежными исследователями. В частности, широко освещены жизнь и деятельность французского исследователя Анри Мозера, посетившего регион во второй половине XIX - начале XX вв., дано описание работ, созданных по результатам исследований.

Ключевые слова: Средняя Азия, французское востоковедение, источниковедение, школы востоковедения, орografia, гидрография, ирригация, минералогия, геология, типография, топонимика.

Abstract. This article discusses the research of the Central Asian region by foreign researchers. In particular, the life and work of the French researcher Henri Moser, who visited the region in the second half of the 19th - early 20th centuries, is widely covered, and a description of